


Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-mart)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati %



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatimiz korxonalaridan 12698,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 80,4 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 22,0 % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 5,4 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,3 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 9,3 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 470,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmining 11,6 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat

2020 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 212,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,4 % ini tashkil etdi.



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019 yil yanvar-mart oylarida - 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,6 % (6,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 87,6 % (85,8 %) va quyi texnologiyalisi - 6,5 % (6,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishining ulushi - 4,9 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 113,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,6 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,2 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 152,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, <i>ming tonna.</i>	750	798	106,4
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, <i>tonna.</i>	10 694	12 588	117,7
Ammoniy nitrat, <i>ming tonna azod</i>	62,9	47,18	75,0
Natriy gidroksidi (kaustik soda), <i>ming tonna.</i>	4,73	13,12	277,4
Kislorod, <i>ming m3.</i>	34,32	36,0	104,9
Temir beton, <i>tonna.</i>	10 974,8	5 678,4	51,7
Osh tuzi, <i>tonna.</i>	13	16	123,1
Ishlov berilgan suyuq sut <i>tonna.</i>	283,5	277,5	97,9

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, kislorod (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,9 %), hamda kaustik soda (2,8 m) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2019 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 75,0 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 003,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,9 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,0 % ga oshganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	2 413,12	3 204,67	791,55
Issqlik energiyasi, ming gkal	1 271,41	1 250,95	-20,46



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(2019-2020 yil choraklar bo'yicha), % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	4 209,7	5 176,5	966,8
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	0,9	9,3	8,4
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	6 121	6 942	821



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 710,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 10,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,02 % (2019-yil yanvar-mart oylarida 0,04 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Karmana tumani 14,9 % ni, Xatirchi tumani 14,2 % ni, Qiziltepa tumani 12,1 % ni hamda Nurota tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahar (122,6 %) hamda Karmana tumanida (110,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	710,7	100,0	110,3
Navoiy sh.	232,1	32,6	122,6
Zarafshon sh.	38,7	5,4	103,4
<i>tumanlar</i>			
Karmana	105,6	14,9	110,5
Konimex	16,1	2,3	103,9
Qiziltepa	85,9	12,1	102,8
Navbahor	49,4	7,0	103,6
Nurota	53,6	7,5	106,0
Tomdi	6,9	1,0	104,4
Uchquduq	21,1	3,0	103,9
Xatirchi	101,3	14,2	103,4

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 26,8 %, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,1 % ni, Xatirchi tumani 18,2 % ni, Karmana tumani 11,4 % ni hamda Navbahor tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahriga (101,4) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	272,2	100,0	97,9
Navoiy sh.	73,1	26,8	101,4
Zarafshon sh.	20,3	7,5	96,7
<i>tumanlar</i>			
Karmana	31,0	11,4	96,9
Konimex	8,1	3,0	95,8
Qiziltepa	49,2	18,1	97,2
Navbahor	23,2	8,5	96,1
Nurota	2,2	0,8	95,8
Tomdi	3,6	1,3	97,0
Uchquduq	11,9	4,4	98,2
Xatirchi	49,6	18,2	95,9

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 36,2 %, shuningdek, Karmana tumani 17,0 % ni, Xatirchi tumani 11,8 % ni, Nurota tumani 11,7 % ni hamda Qiziltepa tumani 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (119,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (135,7 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	438,5	100,0	119,7
Navoiy sh.	159,0	36,2	135,7
Zarafshon sh.	18,4	4,2	112,0
<i>tumanlar</i>			
Karmana	74,6	17,0	117,4
Konimex	8,0	1,8	113,6
Qiziltepa	36,7	8,4	111,4
Navbahor	26,2	6,0	111,4
Nurota	51,4	11,7	106,5
Tomdi	3,3	0,8	113,5
Uchquduq	9,2	2,1	112,4
Xatirchi	51,7	11,8	111,8

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 204,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 1,6 % ni tashkil etdi.




Navoiy viloyatida hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar-mart mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	12 698,1	103,5
Navoiy sh.	10 705,9	102,3
Zarafshon sh.	44,4	98,3
<i>tumanlar</i>		
Karmana	1 374,8	132,8
Konimex	75,6	109,6
Qiziltepa	193,0	111,2
Navbahor	87,3	106,2
Nurota	57,4	100,2
Tomdi	9,0	102,0
Uchquduq	22,3	108,9
Xatirchi	128,4	113,8



Navoiy viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Navoiy shahri (viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 84,3 %), Karmana (10,8 %), Qiziltepa (1,5 %), Xatirchi (1,0 %), hamda Navbahor (0,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Karmana (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 132,8 %), Xatirchi (113,8 %), Qiziltepa (111,2 %), Konimex (109,6 %) tumanlarida hamda Navoiy (102,3 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019 yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (74 243,3 ming so'm), Karmana (10 902,1 ming so'm), Konimex (2 118,2 ming so'm) va Qiziltepa (1 270,7 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 1 609,4 ming so'mni, Karmana tumani - 837,5 ming so'mni, Nurota tumani - 578,9 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 565,7 ming so'mni, Uchquduq tumani - 565,5 ming so'mni va Xatirchi tumanida - 508,3 ming so'mni tashkil etdi.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar-mart oylarida, ming so'm)


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Navoiy viloyati	12 713,3	711,6
Navoiy sh.	74 243,3	1 609,4
Zarafshon sh.	529,4	460,7
<i>tumanlar</i>		
Karmana	10 902,1	837,5
Konimex	2 118,2	451,9
Qiziltepa	1 270,7	565,7
Navbahor	772,1	437,4
Nurota	619,9	578,9
Tomdi	609,2	467,6
Uchquduq	598,2	565,5
Xatirchi	644,3	508,3



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020-yil yanvar-mart oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 129,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0%), Nurota (100,0%), Tomdi (100,0%), Xatirchi (99,9%), Uchquduq (96,6%), Qiziltepa (87,0%) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimizda hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,3%), Konimex (21,7%), Karmana (33,8%) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 3 009 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 665 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,1%) Navoiy shahriga, 477 tasi (15,9%) Karmana tumaniga, 413 tasi (13,7 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020-yil yanvar-mart oyida viloyatimizda 227 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 64 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 28,2 %) Xatirchi tumanida, 32 tasi (14,1 %) Karmana tumanida, 28 tasi (12,3 %) Qiziltepa tumanida, 27 tasi (11,9 %) Navoiy shahrida, 27 tasi (11,9 %) Zarafshon shahrida hamda 15 tasi (6,6 %) Navbahor tumanida tashkil etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 72 ta loyiha bo'yicha 28 618,9 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 41 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	109	72
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	15	20
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mln. so'm</i>	138 584,87	28 618,9
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	225,2	-
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	29	41

Navoiy viloyati statistika
boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: (79) 223-33-29